

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Adilova Feruza Oblokulovna, doktorant,

Samarqand Davlat Universiteti,

E-mail:adilova.feruza.@ nbk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etish yo'llari, shakl, metod va vositalari ilmiy-nazariy jihatdan tashkil etilgan. Shuningdek, ma'naviy - ma'rifiy ish shakllarining turli-tumanligi, jamiyatning zamonaviy talablariga, milliy mentalitet va milliy g'oya tamoyillariga mos tashkil etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi tadqiqotchi kuzatuvlari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etish yo'llari, shakl, metod, vosita, pedagogik shart-sharoit, yosh avlod, ta'lim-tarbiya, pedagog texnolog, izchillik, globallashuv, akseleratsiya, texnogen sivilizatsiya.

TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL ACTIVITY IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Adilova Feruza Oblokulovna, PhD student,

Samarkand State University,

Annotation. In this article, ways, forms, methods and means of effective organization of spiritual and educational work in the educational process are scientifically and theoretically organized. Also, the diversity of spiritual and educational forms of work, the significant pedagogical importance of organization in accordance with the modern requirements of society, the principles of national mentality and national idea are highlighted on the basis of research observations.

Keywords: ways of effective organization of spiritual and educational work, form, method, means, pedagogical conditions, younger generation, education, pedagogical technologist, consistency, , globalization, acceleration, man-made civilization.

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

**Адилова Феруза Облокуловна, докторант,
Самаркандский Государственный Университет,**

Аннотация. В данной статье научно-теоретически организованы пути, формы, методы и средства эффективной организации духовно-просветительской работы в образовательном процессе. Также на основе наблюдений исследователя освещается многообразие форм духовно - просветительской работы, важное педагогическое значение приобретает организация в соответствии с современными требованиями общества, принципами национального менталитета и национальной идеи.

Ключевые слова: пути эффективной организации духовно-просветительской работы, форма, метод, средство, педагогическая предпосылка, подрастающее поколение, воспитание, педагог–технолог, последовательность, , глобализация, акселерация, техногенная цивилизация.

KIRISH. Respublikamiz muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar bo'sag'asida bozor iqtisodiyotga o'tish yo'lini tanlaganligi hamda mamlakatda yangi ijtimoiy munosabatlar yuzaga kelganligi sababli "Yangi O'zbekiston – yangi g'oya" shiori ostida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oliy ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini, moddiy texnik bazasini yaxshilash, professor-o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratildi. "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish" kabi vazifalar belgilangan. Bu birinchi navbatda, farmonda ko'rsatilgan "Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish faoliyatini takomillashtirish", "Talabalarni adabiyot, san'at va sportga, sog'lom turmush tarziga jalb etish, ularda estetik did va kasbiy etika, axborot tahlili madaniyatini shakllantirish, vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish bo'yicha ma'naviy-

ma'rifiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish va barcha oliy ta'lim muassasalarida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta'minlash" da muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy – ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga mos ravishda, talaba yoshlarni huquqiy, intellektual salohiyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, ma'naviy-ma'rifiy zaminlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari talabi darajasida bilim berishimiz oldimizda turgan muhim pedagogik vazifalardan biridir. Pedagoglar orasida ta'limda tarbiyalaymiz, tarbiyalab turib ta'limni shakllantiramiz degan tushuncha bor. Demak, talabalarni ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etish uchun ham tarbiyaviy, ham ta'limiy, ham rivojlantiruvchi, ham mafkuraviy yo'nalish bo'yicha tarbiyalashimiz ta'lim berishimiz lozim. Zero elektron ta'lim muhitida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari va shart-sharoitlarining mushtarakligiga bog'liq. Bunda:

- ma'naviy - ma'rifiy ishlarini samarali tashkil etish maqsadi (mening ehtiyojim);
- mazmuni (egallashim lozim bo'lgan fazilatlar);
- pedagogik jarayon metodi (talaba qobiliyatini hisobga olgan holda metodlarning qo'llanilishi, usullari va yo'llari);
- pedagogik shart –sharoit (talaba qobiliyatlari, yosh xususiyatlari, mavzu mohiyatidan kelib chiqib qulay imkoniyat va shart-sharoitlar) orqali amalga oshiriladi. [5] Ammo har qanday pedagogik jarayonda bo'lgani kabi ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda juda ko'p omillarning amaliyligi talaba shaxsiga, uning irodasi va xohish-istagiga, shaxs sifatida ma'naviy kamolot tushunchasini nechog'li anglab yetib, o'zining turmush tarziga singdira olishiga bog'liq bo'ladi. Ma'naviy tarbiya o'zida inson mohiyatini, uning ijtimoiy biososial mavjudot sifatidagi olamni ifoda etuvchi tushunchadir.

Talabalarda ta'lim jarayonida ma'naviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish o'zaro bir-biri bilan bog'liq va aloqador: madaniy – ma'rifiy yuksaklik, ijtimoiy –

didaktik taraqqiyot, iymon-e'tiqodning butunligi, falsafiy-pedagogik o'sish, milliy axloq -odob me'yorlariga to'la rioya qilish, ilm – ma'rifatli bo'lish, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, milliy qadriyatlarga muhabbat, fidoyilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik, poklanish, islom diniga e'tiqodlik, Vatan va xalq mustaqilligini doimiy himoya qilish va unga xizmat qilish, ajdodlar va ularning merosiga chuqur hurmat va tarixiy dunyoqarashning integrallashgan tavsifi sifatida belgilanadi.

Pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy–ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish ikki yunalishga ega. Bu yunalishlar ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarning o'quv rejalariga va iste'molchilar talablariga mosligidir. Tajriba va pedagogik so'rovnomalar tahlili asosida shu narsaga amin bo'ldikki, talabalar o'zlari yashab turgan hayot tarzini sog'lom turmush tarzi deb tan oladilar. Eng achinarlisi, milliy istiqlol g'oyalariga zid mafkuraga asoslangan pornografik, erotik asarlar, gazeta va jurnallarning yurtimizga kirib kelishi va yoshlar ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi, internet xabarlaridan foydalanish imkonining kengligi natijasida yoshlarning milliy madaniyatiga zid bo'lgan ma'lumotlarni olishi va ulardan noto'g'ri xulosa chiqarishi, (ayrim qiz bolalar o'rtasida madaniyatimizga zid ta'lim va innovasion tadqiqotlar ravishda o'z jinsini o'zgartirishga bo'lgan ehtiyojning kuchayganligi) ya'ni axborot olish madaniyatining yetishmasligi ko'zga tashlanayapti. [7]

TAHLIL VA NATIJALAR.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, talabalarning zaruriy axborot olishi uchun ilmiy-nazariy, ommabop, metodik baza mavjud biroq, ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishni rivojlantirish yuzasidan ta'lim muassasalarining mahalla, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligining qoniqarli emasligi ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda talabalar orasida ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga oid targ'ibot ishlarini kuchaytirishning zarurligini va mazkur muammolarning kelib chiqishiga asosiy sabab bo'lgan, talabalar ma'naviy ma'rifiy faolligini oshirishda Sharqona milliy tarbiyani kuchaytirish, ular qiziqtirgan mavzudagi suhbat va debatlar

o'tkazish tarbiyaviy jarayonlarning sifatini yaxshilash ham talab etiladi. [5]
Bizningcha, tarbiyaviy jarayon sifatini ko'rsatkichlar yordamida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

- individual-shaxsiy va insoniy yo'nalganlik;

- oliy ta'lim muassasasidagi ma'naviy - ma'rifiy ishlar moddiy texnik asosining to'liqligi, tadbirlarning mujassamlashgan rejasi, eslatmalar, kodekslar, xulq-atvor qoidalari, ijodiy tanlovlarning Nizomlari mavjudligi;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni boshqarishning takomillash tirilganligi;

- ma'naviy - ma'rifiy ishlarning rejalashtirilganligi;

- ma'naviy - ma'rifiy ishlarni hisobga olish va nazorat qilish mexanizmining mavjudligi;

- ma'naviy - ma'rifiy ishlarning borishi va maromi tahlil kilinishi;

- oliy ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazamliligi;

- oliy ta'lim muassasasida talabalar shaxsini tarbiyalashning barcha turlariga e'tibor karatilganligi, chunonchi, ma'naviy, ahloqiy, jismoniy, estetik, mafkuraviy va h.k.

- talabalarga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning barcha imkoniyatlaridan foydalanish tajribasining mavjudligi;

- talabalarga yakka va umumiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish shakllaridan foydalanilishi;

- ma'naviy - ma'rifiy ish shakllarining turli-tumanligi, jamiyatning zamonaviy talablariga, milliy mentalitet va milliy goya tamoyillari, talabalarning ehtiyojlariga mosligi kabilar. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarning sifatini ta'minlashda tarbiya mazmuni birinchi darajali mohiyat kasb etadi.

Uning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- oliy ta'lim muassasalarida amal qilinayotgan modernizsiyalashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy dasturlarining samaradorligi;

- tashkiliy-pedagogik shart - sharoitlar va pedagogik texnologiyalarning qulayligi, ularning pedagog xodimlar faoliyatini o'rganish mezonlari bo'yicha hisoblash uslubiyoti talablariga muvofikdigi;

- akadem guruh tyutoriga qo'yilgan talablardan xabardorligi hamda guruh talabalarining universitet ichki tartib qoidalarga amal qilishlarini nazorat qilishi;
- tyutor ish rejasi mazmuni va undagi bandlarning bajarilishi holati;
- tyutorlik faoliyatiga oid xujjatlarning yuritilishi;
- tyutorlik faoliyatidagi tashkiliy ishlarning bajarilishi;
- akadem guruh talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish faoliyati;
- tyutorning TTJ va otaliqqa olingan ta'lim muassasasidagi faoliyati;
- tyutorlik guruhidagi talabalarining universitet, talabalar o'rtasidagi tanlovlarda, respublika miqyosidagi talabalarining olimpiadalardagi ishtiroki;
- talabalar ota-onalari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari; - universitet miqyosida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faoliyati;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik faoliyati.

MUHOKAMA.

Aytish joizki, bugungi globallashuv, akseleratsiya va texnogen sivilizatsiya yoshlar tarbiyasiga "ijobiy" va "salbiy" ta'sirini ko'rsatayotgani nafaqat pedagoglarimiz, balki ota onalarimizga ham ma'lum. Fikrimizcha, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uzviyligini ta'minlashda mediatexnologiyalardan foydalanish, tarbiya vositalarini bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda qo'llash imkonini beradi. Ayni vaqtda "Apparat matnlar" tizimi (videokitoblar, o'quv diskleri, matnli albomlar va boshqalar) dan ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Bu esa pedagoglarning o'zaro muloqot va bahs munozara qilish imkoniyatini kengaytirishi bilan birga, tarbiya loyihalarini yaratishda pedagog texnolog va metodistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi.

Ma'naviy tahdidlar haqida to'xtalar ekanmiz, ochiq axborot tizimi va adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, bugun kunda bu tahdidlarning yigirmadan ortiq turlari mavjudligi hech kimga sir emas. Multimadaniyat, polietniklik, monomadaniyat, polimadaniyat, madaniyatlararo dialog, genosid, rasizm, ksenofobiya, ekstremizm, etnosentrizm, fundamentalizm, radikalizm, millatchilik,

separatizm, mahalliychilik, milliy va guruhli xudbinlik, diniy aqidaparastlik, diniy riyokorlik, soxta demokratiyalar, rangli inqiloblar, preventiv revolyusiyalar, ikki xil standartlar va boshqalar. Achinarlisi shundaki, talaba yoshlar orasida ham bilib bilmay turli xil oqimlarga qo'shilib ketish holatlari ko'zga tashlanayapti.

Xo'sh buning sabablari nimada? Birinchidan, ma'rifiy ishlarni olib borish orqali milliy mafkuramizga kuch- quvvat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan, keng ommaga ta'sir o'tkazishga xizmat qiladigan ma'naviy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy manbalar bilan takomillashtirib borilgan tadbirlarni yoshlar manfaatlari va qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil etish; Ikkinchidan, yoshlar faoliyatni tashkil etishda pedagogik taktikani to'g'ri qo'llash, ya'ni turli intellektual loyihalar, forumlar, ilmiy tadqiqotlar atrofida ularni qiziqishlariga ko'ra birlashtirish; Uchinchidan, yoshlar kelajagini kafolatlaydigan, vatanni tanigan, ijodkorlikka va maqsadga yo'naltirilgan, kreativ tafakkur, tolerantlik, fuqarolik mas'uliyati, umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik va ochiqlik stretegiyasi asosida ularni mamlakatimiz ravnaqi yo'lidagi davlat siyosati atrofida birlashtirish va yuksak ma'naviy burchlarini ado etish ruhida tarbiyalashga erishish. Demak, talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlash pedagogik faoliyat sub'yekti sifatida tizimli, uzluksiz va uzviy tarzda amalga oshirish zahirida yoshlar sog'lom tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifa yotadi. Sog'lom tafakkur asosida sog'lom ma'naviyat shakllantiriladi. Ammo sog'lom tafakkur va sog'lom ma'naviyat tushunchalarini o'zaro birlashtirib turuvchi omil real ijtimoiy muhit hisoblanadi. [3]

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma'naviy madaniyatini oshirishning ma'rifiy asoslarini shakllantirishning muhim vositasi hisoblangan kutubxonaga a'zo bo'lish, ijtimoiy-gumanitar fanlarga qiziqishni oshirishga alohida e'tibor berish nafaqat o'qituvchilarning balki barchaning diqqat e'tiborida bo'lmog'i lozim. Shuningdek ta'lim tizimida ma'naviyat asoslarini mazmun va mohiyatini yoshlar ongiga singdirishga yo'naltirilgan maxsus o'quv kurslari, fakultativ mashg'ulotlar tashkil

etish, yoshlar faravonligini ta'minlash bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 й. “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847 Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси 2019 йил 9 октябрь. www.lex.uz.

2.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 31.12.2019 й. “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги №1059-сонли Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. (www.lex.uz)

3.Жўраев Н. Маънавият – инсон қалбининг сарчашмаси. - Тошкент: Маънавият, 2015. – 30 б.

4.Давронова Д.С. Оилада вояга етмаган болаларнинг ижтимоий онгини тарбиялаш тизимини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Тошкент 2018

5.Исмоилова З.К. Миллий ғоя ва маънавий – ахлоқий тарбия. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Молия, 2007. - 71 б

6.Маънавиятнинг асосий тушунчалар изоҳли луғати/ Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. - Тошкент: Ғ.Ғулом, 2009. -760 б.

7.Мухторов А. Глобаллашув шароитида маънавий таҳдидларни бартараф этиш омиллари. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 31 б